



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:3 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Qurbonov Muhammadali Bahodirovich</i>	4
2.	O'ZBEKISTONDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shirinova Obida Toshpulatovna</i>	8
3.	ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna</i>	12
4.	QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Qo'chqorov Muslimbek Bobojon o'g'li</i>	16
5.	SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITINING TASHKILY TA'MINOTI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Tursunboyev Sarvar Shuxrat o'g'li</i>	19
6.	SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich</i>	24
7.	TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH <i>Ibragimov Mansur Mardonovich</i>	27
8.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA NAZORATINING INNOVATSION MEXANIZMLARI <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Davronov Miraziz Baxtiyor o'g'li</i>	30
9.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	33
10.	MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Yusupov Shavkar Xushvaqt o'g'li</i>	37
11.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Akmalov Ilg'or Nazirovich</i>	41
12.	XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Toshbekov Firdavs Abdurauf o'g'li</i>	44
13.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	47
14.	ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li</i>	52
15.	XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Mahmudova Go'zal Samadjon qizi</i>	56

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



O'ZBEKISTONDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH

Shirinov Uchqun Abduxalilovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti

Email: ushirinov@mail.ru

ORCID: 0000-0003-2146-9484

Shirinova Obida Toshpulatovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali mustaqil tadqiqotchi

Email: obidashirinova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda xalqaro standartlar asosida buxgalteriya hisobini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) hamda Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (BHXS)ning shakllanish tarixi, rivojlanish bosqichlari va jahon amaliyotidagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida xalqaro standartlar va milliy hisob amaliyotini uyg'unlashtirish orqali moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, ishonchligi va investitsion jozibadorligini oshirish bo'yicha ilmiy xulosalar hamda amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS), Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (BHXS), Moliyaviy hisobotning milliy standartlari (MHMS), MHMS-1, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, xalqaro standartlar, milliy standartlar, moliyaviy axborot, shaffoflik, taqqoslanuvchanlik, investitsion jozibadorlik, korporativ boshqaruv.

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical aspects of organizing accounting in Uzbekistan based on international standards, the history of the formation of International Financial Reporting Standards (IFRS) and International Accounting Standards (IAS), stages of development and their significance in world practice. As a result of the study, scientific conclusions and practical proposals were developed to increase the transparency, reliability and investment attractiveness of financial statements by harmonizing international standards and national accounting practices.

Keywords: International Financial Reporting Standards (IFRS), International Accounting Standards (IAS), National Financial Reporting Standards (NFRS), NFRS-1, accounting, financial reporting, international standards, national standards, financial information, transparency, comparability, investment attractiveness, corporate governance.

Абстрактный: В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты организации бухгалтерского учета в Узбекистане на основе международных стандартов, история формирования Международных стандартов финансовой отчетности (МСФО) и Международных стандартов бухгалтерского учета (МСБУ), этапы их развития и их значение в мировой практике. В результате исследования были разработаны научные выводы и практические предложения по повышению прозрачности, достоверности и инвестиционной привлекательности финансовой отчетности путем гармонизации международных стандартов и национальной практики бухгалтерского учета.

Ключевые слова: Международные стандарты финансовой отчетности (МСФО), Международные стандарты бухгалтерского учета (МСБУ), Национальные стандарты финансовой отчетности (НСФО), НСФО-1, бухгалтерский учет, финансовая отчетность, международные стандарты, национальные стандарты, финансовая информация, прозрачность, сопоставимость, инвестиционная привлекательность, корпоративное управление.

Kirish (Введение/Introduction).

Jahonda iqtisodiy globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro kapital bozorlarining kengayishi hamda transmilliy kompaniyalar faoliyatining rivojlanishi buxgalteriya hisobi tizimini yagona xalqaro tamoyillar asosida tashkil etishni zaruratga aylantirmoqda. Xususan, Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari (MHXS/IFRS) moliyaviy axborotlarning shaffofligi, taqqoslanuvchanligi va ishonchligini ta'minlashda muhim vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Bugungi kunda dunyoning ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlari korxonalarining moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar asosida yuritishga o'tib, investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun yuqori sifatli moliyaviy axborot bazasini shakllantirmoqda. Xalqaro standartlar asosida tashkil etilgan buxgalteriya hisobi korxonalarining moliyaviy holati va faoliyat natijalarini haqqoniy aks ettirish, investitsion jozibadorlikni oshirish hamda xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli xalqaro standartlar asosida buxgalteriya hisobini tashkil etish masalasi zamonaviy iqtisodiyotning eng dolzarb ilmiy-amaliy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda ham iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va milliy moliyaviy hisobot tizimini xalqaro talablarga moslashtirish maqsadida buxgalteriya hisobini MHXS asosida tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori mamlakatda xalqaro standartlarni joriy etishning muhim huquqiy asosini yaratdi. Mazkur qarorga muvofiq aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar uchun MHXS asosida moliyaviy hisobot yuritish bosqichma-bosqich joriy etildi. Shuningdek, buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash, MHXS bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlash hamda normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha tizimli choralar ko'rilmoqda. Natijada moliyaviy hisobotlarning xalqaro talablarga muvofiqligi ta'minlanib, korxonalarining investitsion jozibadorligi va xalqaro moliya bozorlaridagi raqobatbardoshligi oshib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish masalasi iqtisodiyot fanida uzoq yillardan buyon muhokama qilinib kelinayotgan ilmiy yo'nalishlardan biridir. Ilmiy adabiyotlarda ushbu masala bo'yicha olimlarning qarashlari shartli ravishda uch guruhga ajratiladi: birinchi guruh olimlari MHXS (IFRS)ga o'tish zarurligini asoslab bergan bo'lsa, ikkinchi guruh vakillari har bir davlat o'zining milliy buxgalteriya standartlarini saqlab qolishi lozimligini ta'kidlaydi,

uchinchi guruh olimlari esa xalqaro standartlarni milliy iqtisodiyot xususiyatlariga moslashtirish tarafdori hisoblanadi.

1-guruh. MHXSGa o'tish zarurligini asoslagan olimlar.

Bu yo'nalish vakillari xalqaro standartlarning asosiy afzalligi moliyaviy hisobotlarning taqqoslanuvchanligi, shaffofligi va investitsion jolibadorligini oshirishda namoyon bo'lishini ta'kidlaydilar.

Christopher Nobes (2006) [1] fikricha, xalqaro kapital bozorlarining rivojlanishi korxonalar moliyaviy hisobotlarini yagona standart asosida tayyorlashni talab qiladi. Olim MHXS investorlarga turli mamlakat korxonalarining moliyaviy natijalarini o'zaro taqqoslash imkoniyatini yaratishini qayd etadi. David Cairns (2000) [2] MHXSni global biznes tili sifatida baholab, uning joriy etilishi transmilliy kompaniyalar faoliyatida axborot assimetriyasini kamaytirishini asoslagan. Mary E. Barth (2008) [3] tadqiqotlarida MHXSni qo'llaydigan korxonalarda moliyaviy hisobot sifati yuqoriroq bo'lishi va investorlar uchun axborot qiymati oshirishni empirik jihatdan isbotlagan. Ray Ball (2006) [4] esa MHXSning qo'llanilishi korporativ boshqaruv sifati va moliyaviy shaffoflikni oshirish orqali xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirishini ta'kidlaydi.

Umuman olganda, mazkur olimlar xalqaro standartlarga o'tishning asosiy sabablari sifatida kapital bozorlariga integratsiyalashuv, investitsiyalarni jalb qilish, moliyaviy hisobotlarning sifatini oshirish va xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish omillarini ko'rsatadilar.

2-guruh. Har bir davlatning o'z milliy standartlari bo'lishi kerakligini ta'kidlagan olimlar.

Mazkur guruh vakillari buxgalteriya hisobi tizimi mamlakatning iqtisodiy, huquqiy va madaniy muhitiga bog'liq bo'lishi sababli yagona global standart barcha davlatlar uchun bir xil natija bermasligini ta'kidlaydilar. Sidney Gray (1988) [5] milliy madaniyat buxgalteriya tizimining shakllanishiga bevosita ta'sir qilishini asoslab, har bir davlat o'z iqtisodiy muhitiga mos standartlarga ega bo'lishi zarurligini ko'rsatgan. Christopher Nobes (1998) [6] ayrim tadqiqotlarida buxgalteriya tizimlari huquqiy tizimlar va moliyalashtirish manbalari bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlab, milliy standartlarning saqlanishini qo'llab-quvvatlagan. Geert Hofstede (2001) [7] milliy madaniyat omillari buxgalteriya amaliyotiga kuchli ta'sir ko'rsatishini qayd etib, xalqaro standartlarni to'liq joriy etish ayrim mamlakatlarda samarasiz bo'lishi mumkinligini ta'kidlagan. Richard Macve (2015) [8] MHXS rivojlangan kapital bozorlariga mos ishlab chiqilganligini, rivojlanayotgan davlatlar uchun esa milliy standartlar ko'proq amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkinligini qayd etgan.

Ushbu guruh olimlari fikricha, buxgalteriya hisobi avvalo milliy iqtisodiyot ehtiyojlariga xizmat qilishi kerak va xalqaro standartlarni to'liq qabul qilish ayrim hollarda milliy manfaatlariga mos kelmasligi mumkin.

3-guruh. Xalqaro standartlarni milliy standartlarga zarur deb hisoblagan olimlar.

Bu guruh vakillari xalqaro standartlarni to'liq rad etmaydi, biroq ularni har bir davlatning iqtisodiy va huquqiy sharoitlariga moslashtirish lozimligini ta'kidlaydi.

Shahrokh Saudagaran (2009) [9] MHXSning asosiy tamoyillari saqlab qolinganda, milliy iqtisodiyot xususiyatlarini hisobga olish zarurligini asoslagan. Kees Camfferman (2007) [10] xalqaro standartlarning muvaffaqiyati ularni mahalliy qonunchilik va amaliyot bilan uyg'unlashtirish darajasiga bog'liq ekanligini qayd etgan. Ann Tarca (2012) [11] MHXSni joriy etish jarayonida milliy me'yoriy-huquqiy bazani moslashtirish va bosqichma-bosqich implementatsiya qilish muhimligini ta'kidlaydi. Stephen A. Zeff (2012) [12] xalqaro standartlarni "copy-paste" usulida emas, balki mamlakat iqtisodiyoti, biznes muhiti va buxgalteriya amaliyotiga moslashtirish orqali joriy etish samaraliroq ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur olimlarning qarashlariga ko'ra, eng maqbul yondashuv MHXSning fundamental tamoyillarini qabul qilgan holda, ularni milliy qonunchilik va xo'jalik yuritish sharoitlariga moslashtirish hisoblanadi.


Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlar asosida buxgalteriya hisobini tashkil etish masalasida yagona ilmiy yondashuv mavjud emas. Bir guruh olimlar MHXSGa to'liq o'tish tarafdori bo'lsa, ikkinchi guruh milliy standartlarni saqlab qolish zarurligini asoslaydi. Uchinchi guruh olimlari esa xalqaro standartlarni milliy iqtisodiyot xususiyatlariga moslashtirish orqali joriy etish eng maqbul yechim ekanligini ta'kidlaydilar. Hozirgi kunda ko'plab mamlakatlar, jumladan O'zbekiston ham aynan uchinchi yondashuv asosida MHXS talablarini milliy buxgalteriya hisobi tizimiga integratsiya qilish yo'lidan bormoqda.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results). Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) turli mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan korxonalar moliyaviy hisobotlarini yagona tamoyillar asosida shakllantirish, ularning o'zaro

taqqoslanuvchanligi, shaffofligi va ishonchligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalqaro savdo, investitsiyalar va transmilliy korporatsiyalar faoliyatining kengayishi natijasida har bir davlatning alohida buxgalteriya standartlaridan foydalanishi moliyaviy axborotlarni taqqoslashda qiyinchiliklar tug'dira boshladi. Natijada investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar korxonalarining moliyaviy holatini to'g'ri baholashda muammolarga duch keldilar. Shu sababli 1973-yilda Xalqaro buxgalteriya standartlari qo'mitasi (IASB), keyinchalik esa Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari kengashi (IASB) tomonidan yagona global standartlar tizimi ishlab chiqildi.

Ushbu standartlarning asosiy maqsadi moliyaviy hisobotlarning sifatini oshirish, kapital bozorlarida axborot assimetriyasini kamaytirish, investorlar ishonchini mustahkamlash hamda mamlakatlar o'rtasida investitsiya va biznes faoliyatini rivojlantirish uchun umumiy moliyaviy hisobot tili yaratishdan iboratdir. Bugungi kunda MHXS dunyoning 140 dan ortiq mamlakatlarda qo'llanilib, global iqtisodiyotda moliyaviy axborotlarni taqdim etishning eng muhim xalqaro me'yoriy asosiga aylangan.

1-rasm. MHXS va BHXS: Xalqaro moliyaviy hisobot



standartlarning rivojlanishi va qo'llanilish ko'rsatkichlari¹

Mazkur infografikada Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS/IFRS) va Xalqaro buxgalteriya hisobi standartlari (BHXS/IAS)ning shakllanish tarixi, qo'llanilish darajasi hamda asosiy ko'rsatkichlari aks ettirilgan. Undan ko'rinib turibdiki, BHXS standartlari 1973-yildan boshlab ishlab chiqilgan bo'lib, 2001-yilda Xalqaro buxgalteriya standartlari qo'mitasi (IASB) o'rni Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari kengashi (IASB) tashkil etilgach, yangi standartlar MHXS nomi bilan qabul qilina boshlandi. Hozirgi kunda 41 ta BHXS va 17 ta MHXS amalda bo'lib, ular dunyoning 140 dan ortiq mamlakatlarda to'liq yoki qisman qo'llanilmoqda. Infografikada standartlarning yaratilish maqsadi, xalqaro kapital bozorlaridagi ahamiyati hamda global moliyaviy hisobot tizimini shakllantirishdagi o'rni ham yoritilgan. Infografika ma'lumotlari xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining bugungi kunda korxonalar faoliyatining shaffofligini ta'minlash, moliyaviy hisobotlarning taqqoslanuvchanligini oshirish va investorlar uchun ishonchli axborot manbaini yaratishdagi muhim ahamiyatini ko'rsatadi. Shuningdek, BHXSdan MHXSGa o'tish jarayoni xalqaro buxgalteriya hisobi tizimining evolyutsion rivojlanishini aks ettirib, zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida MHXSning asosiy moliyaviy hisobot tili sifatida shakllanganligini tasdiqlaydi. Shu bois mazkur infografika xalqaro standartlar asosida buxgalteriya hisobini tashkil etishning nazariy va amaliy asoslarini tushunishda muhim axborot manbasi hisoblanadi.

¹ Muallif ishlanmasi

O'ZBEKISTONDA YIRIK KORXONALAR SONINING O'SISH DINAMIKASI

(2020–2025-yillar)

2-rasm. O'zbekistonda yirik kompaniyalar sonining o'sish dinamikasi (2020–2025-yillar)²

2020–2025-yillar davomida O'zbekistonda yirik kompaniyalar sonining barqaror o'sish tendensiyasi aks ettirilgan. So'nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, xususiyashtirish jarayonlarining jadallashuvi, yirik investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi hamda xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining ortishi natijasida korporativ sektor sezilarli darajada kengaydi. Yirik kompaniyalar sonining ko'payishi ularning moliyaviy faoliyatini xalqaro investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun yanada shaffof va taqqoslanuvchan tarzda taqdim etish zarurati kuchaytirdi. Shu bilan birga, yirik korxonalar xalqaro kapital bozorlariga chiqishi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishi va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilishi Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Chunki investorlar va kreditorlar korxonalarining moliyaviy holatini xalqaro miqyosda tan olingan yagona standartlar asosida baholashni talab qiladilar.

Natijada O'zbekistonda yirik kompaniyalar sonining ortishi MHXSni joriy etish jarayonini jadallashtiruvchi muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Bu esa korporativ boshqaruv sifatini oshirish, moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlash hamda mamlakat iqtisodiyotining xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga o'tish zarurati mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi, xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish, kapital bozorlarini rivojlantirish hamda korxonalar moliyaviy hisobotlarining shaffofligi va ishonchligini oshirish ehtiyojidan kelib chiqdi. Avvalgi milliy buxgalteriya hisobi standartlari asosan ichki foydalanuvchilar va davlat nazorati ehtiyojlariga yo'naltirilgan bo'lib, xalqaro investorlar uchun moliyaviy axborotlarning taqqoslanuvchanligini to'liq ta'minlay olmas edi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator farmon va qarorlari bilan MHXSga o'tish jarayoni jadallashtirildi. Mazkur qarorlarda MHXSni joriy etish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash, xalqaro moliya bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish hamda korporativ boshqaruv va moliyaviy hisobot sifatini oshirish asosiy maqsad sifatida belgilangan. Natijada aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilarda MHXS asosida hisob yuritish bosqichma-bosqich joriy etildi.

O'zbekistonda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish bilan bir qatorda, milliy iqtisodiyot va amaldagi qonunchilik xususiyatlarini hisobga olgan holda Moliyaviy hisobotning milliy standartlari (MHMS) tizimini takomillashtirish ishlari ham davom ettirilmoqda. So'nggi yillarda amaldagi BHMSlar xalqaro standartlarga yaqinlashtirilib, ularning mazmuni MHXS talablari bilan uyg'unlashtirilmoqda. Bunda asosiy maqsad xalqaro standartlarning fundamental tamoyillarini saqlab qolgan holda, ularni O'zbekistonning huquqiy, iqtisodiy va institutsional muhitiga moslashtirishdan iborat. Shu sababli mamlakatda MHXSni to'liq qabul qilish bilan birga, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun amaliy jihatdan qulay bo'lgan milliy standartlar tizimini shakllantirish va yangi tahrirdagi MHMSlarni ishlab chiqish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada

O'zbekistonda xalqaro tajriba va milliy amaliyot uyg'unlashgan zamonaviy buxgalteriya hisobi tizimini yaratish uchun zarur me'yoriy-huquqiy asos shakllantirilmoqda.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan buxgalteriya hisobi tizimini isloh qilish chora-tadbirlari doirasida 2027-yil 1-yanvardan boshlab Moliyaviy hisobotning 1-son milliy standarti (MHMS-1)ning amaliyotga joriy etilishi rejalashtirilgan. Mazkur standart xalqaro moliyaviy hisobot standartlari tamoyillari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishning yagona metodologik asoslarini belgilashga xizmat qiladi. Yangi standartning joriy etilishi natijasida korxonalarda moliyaviy axborotlarning shaffofligi, ishonchligi va taqqoslanuvchanligi sezilarli darajada oshadi, bu esa moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarga yanada sifatli va haqqoniy ma'lumotlarni taqdim etish imkonini beradi. Ayniqsa, MHMS-1ning amaliyotga tatbiq etilishi O'zbekiston korxonalarini xalqaro moliyaviy hisobot tizimiga yanada yaqinlashtiradi hamda MHXSga bosqichma-bosqich o'tish jarayonini soddalashtiradi. Bu esa investorlar, kreditorlar, auditorlar va davlat organlari uchun moliyaviy ma'lumotlarning tushunarligini oshirib, investitsion jozibadorlikni kuchaytiradi. Shuningdek, yangi standart korxonalarda hisob siyosatini shakllantirish, moliyaviy natijalarni baholash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu jihatdan qaralganda, 2027-yildan MHMS-1ning joriy etilishi nafaqat buxgalteriya hisobi tizimini modernizatsiya qilish, balki mamlakat iqtisodiyotining xalqaro moliyaviy makonga integratsiyalashuvi va korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim va istiqbolli islohotlardan biri hisoblanadi.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda O'zbekistonda buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlar asosida tashkil etish iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Mamlakatda yirik kompaniyalar sonining ortib borishi, xorijiy investitsiyalar hajmining kengayishi, kapital bozorlarining rivojlanishi hamda korxonalarining xalqaro moliya institutlari bilan hamkorligining kuchayishi moliyaviy hisobotlarga nisbatan yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda moliyaviy axborotlarning shaffofligi, ishonchligi va xalqaro miqyosda taqqoslanuvchanligini ta'minlash uchun MHXS tamoyillariga asoslangan hisob tizimini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlarni to'liq ko'chirib olish emas, balki ularni milliy iqtisodiyot xususiyatlariga moslashtirish eng samarali yondashuv hisoblanadi.

O'zbekistonda 2027-yil 1-yanvardan boshlab MHMS-1ning joriy etilishi bu boradagi islohotlarning mantiqiy davomi hisoblanadi. Mazkur standart xalqaro moliyaviy hisobot tamoyillarini milliy amaliyotga integratsiyalash orqali korxonalar uchun zamonaviy va tushunarli hisob tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada korxonalarining moliyaviy hisobotlari sifat jihatidan yaxshilanadi, auditorlik tekshiruvlari samaradorligi oshadi, investorlar uchun axborot risklari kamayadi hamda korporativ boshqaruvning sifat darajasi yuksaladi. Eng muhimi, yangi standartlar tizimi O'zbekiston korxonalarining xalqaro moliya bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirib, mamlakat iqtisodiyotining global iqtisodiy makonga integratsiyalashuvini jadallashtiradi.

Tadqiqotimiz davomida quyidagi taklifni ishlab chiqdik: O'zbekistonda MHMS-1ni samarali joriy etish maqsadida "MHXS–MHMS transformatsiya metodikasi" ishlab chiqilishi va barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun amaliy qo'llanma sifatida tavsiya etilishi maqsadga muvofiq. Ushbu metodikada amaldagi milliy hisob amaliyotidan yangi MHMS talablariga o'tish bosqichlari, schyotlar rejasidagi o'zgarishlar, moliyaviy hisobot shakllarini transformatsiya qilish tartibi hamda amaliy misollar keltirilishi zarur. Bu korxonalarining yangi standartlarga moslashish xarajatlarini kamaytiradi, standartlarni qo'llashda yagona amaliyotni shakllantiradi va buxgalteriya hisobi tizimining xalqaro talablarga muvofiq rivojlanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Literatury/References):

1. Gray, S.J. (1988). Towards a Theory of Cultural Influence on the Development of Accounting Systems Internationally // Abacus. – 1988. – Vol. 24(1). – P. 1–15.

² Muallif ishlanmasi

2. Nobes, C. (1998). Towards a General Model of the Reasons for International Differences in Financial Reporting // *Abacus*. – 1998. – Vol. 34(2). – P. 162–187.
3. Nobes, C. (2006). The Survival of International Differences under IFRS // *Accounting and Business Research*. – 2006. – Vol. 36. – P. 233–245.
4. Cairns, D. (2000). *Applying International Accounting Standards*. – London: Tolley.
5. Barth, M.E., Landsman, W.R., Lang, M.H. (2008). International Accounting Standards and Accounting Quality // *Journal of Accounting Research*. – 2008. – Vol. 46(3). – P. 467–498.
6. Ball, R. (2006). International Financial Reporting Standards (IFRS): Pros and Cons for Investors // *Accounting and Business Research*. – 2006. – Vol. 36. – P. 5–27.
7. Hofstede, G. (2001). *Culture's Consequences*. – Thousand Oaks: Sage Publications.
8. Macve, R. (2015). *Fair Value, Accounting and Financial Economics*. – London: Routledge.
9. Saudagaran, S.M. (2009). *International Accounting: A User Perspective*. – Chicago: CCH.
10. Camfferman, K., Zeff, S.A. (2007). *Financial Reporting and Global Capital Markets*. – Oxford: Oxford University Press.
11. Tarca, A. (2012). The Case for Global Accounting Standards // *Australian Accounting Review*. – 2012. – Vol. 22(3). – P. 241–248.
12. Zeff, S.A. (2012). The Evolution of the IASC into the IASB // *The Accounting Review*. – 2012. – Vol. 87(3). – P. 807–837.